

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR  
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy  
anjuman materiallari**

**TO'PLAMI**

---

**СБОРНИК**

**материалов международной  
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И  
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.D.Mirkomilov, N.A.Xomidova, T.A.Fayziyeva, D.S.Ro'zaliyeva, G.T.Sotiboldiyeva, S.A.Abduxakimova</b>	
Dorivor Qora zirkni yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ahamiyati .....	207
<b>M.X.Diyorova, S.X.Islomova, Sh.Normurodova</b>	
Sug'oriladigan qumli cho'l va taqirli tuproqlarining fizik xossalari .....	210
<b>M.A.Raximov, R.M.Azizov, M.E.Nuraddinova</b>	
Asalari zararkunandalari (chala rivojlanish sikldagi hasharotlar turkumi) .....	214
<b>M.A.Mirzayeva, F.M.Komiljonova</b>	
Dorivor o'simlik Zafaron yetishtirish texnologiyasi .....	219
<b>Q.A.Davronov, N.I.Teshaboyev</b>	
G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga bargidan mikroelementli o'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me'yorlarining ta'siri .....	223
<b>M.P.Yuldasheva, X.O.Olimjonova, G.Baxtiyorova</b>	
Farg'ona vodiyisidagi ayrim baliqchilik xo'jaliklari algoflorasining bioxilma-xilligi .....	228
<b>П.К.Турдалиева</b>	
Исследование содержания флавоноидов и биоэлементов в надземной части <i>Taraxacum officinale wigg. s.L.</i> произрастающей в Южной Фергане .....	234
<b>M.A.Raximov, R.O.Azizov, M.E.Nuraddinova</b>	
Asalarichilikda nasilchilik ishlarini tashkil etish .....	239
<b>N.I.Teshaboyev</b>	
Dehqonchilikda tuproqlarni muhofaza qilishning ahamiyati .....	242
<b>П.К.Турдалиева</b>	
Новый принцип создания биологически активной добавки (бад) к пище, применяемого при лечении и профилактике вирусных заболеваний .....	245
<b>G.A.Abdullayeva, Q.A.Davronov, Z.T.Sodiqova</b>	
G'o'za parvarishida turli mikroelementli o'g'itlarni qo'llash me'yor va muddatlarini paxta hosiliga ta'siri .....	248
<b>M.A.Mirzayeva, F.K.Jo'rabloyeva</b>	
Oq va qora (Susame) kunjut o'simligini foydali xususiyatlari va yetishtirish agrotexnikasi .....	252
<b>Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva, D.A.Oxunova, M.U.Akmajonova</b>	
Nok bog'ini barpo etishda tuproq unumdorligini ahamiyati .....	256
<b>M.B.Xoliqov, N.K.Junaydullayeva, K.E.Mamarasulova</b>	
Takroriy ekilgan mosh o'simligining tuproq unumdorligiga ta'siri .....	260
<b>N.N.Aminjonova, T.A.Fayziyeva, S.X.Zakirova</b>	
Tosh-shag'alli turoqlar unimorligini oshirishning No-till texnologiyasi .....	264
<b>С.Х.Закирова, Т.А.Файзиева, Ф.О.Камолова, Д.С.Рузалиева</b>	
Питательные вещества в песках центральной ферганы .....	267
<b>M.A.Mirzayeva, M.A.Abdurahimova, D.A.Akbaraliyeva M.Toshturg'unova</b>	
Dorivor Oq karrak (Rastoropsha) o'simligini yetishtirish texnologiyasi, biologiyasi, shifobaxsh xususiyatlari va sohalarda qo'llanilishi .....	271
<b>R.Komilov, A.A.Abdurahmonov</b>	
Amarant dorivor o'simligini (Amaranthus) yetishtirish agrotexnikasi va uni dorivorlik xususiyatlari .....	274

**4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI  
O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

<b>U.B.Mirzayev</b>	
Tuproqshunoslik va agrokimyo fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish .....	279
<b>X.A.Abduxakimova, G.T.Sotiboldiyeva, M.A.Muhammadjonova</b>	
Tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash va interaktiv usullardan foydalanish .....	284
<b>M.M.Azimov</b>	
Tuproqshunoslik va zamonaviy ta'lim muammolarining qisqacha tahlili .....	288
<b>Sh.Y.Eshpulatov, Sh.E.Yursunova</b>	
Mahsuldar uzum navlarini yetishtirishda tuproqqa ishlov berishning ahamiyati .....	292



УО'К: 631.533

**G'O'ZA PARVARISHIDA TURLI MIKROELEMENTLI O'G'ITLARNI QO'LLASH ME'YOR  
VA MUDDATLARINI PAXTA HOSILIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ НОРМ И ПЕРИОДОВ ВНЕСЕНИЯ РАЗЛИЧНЫХ МИКРОЭЛЕМЕНТНЫХ  
УДОБРЕНИЙ В ХЛОПКОВОДСТВЕ НА УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПКА**

**THE INFLUENCE OF THE RATE AND PERIODS OF APPLICATION OF DIFFERENT  
MICRO-ELEMENT FERTILIZERS IN COTTON GROWING ON COTTON YIELD**

**Abdullayeva Gulnora Alionovna<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant.

**Davronov Qaxramonjon Anvarjonovich<sup>2</sup>** 

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.d. (DSc), dotsent

**Sodiqova Zabida To'Iqinovna<sup>3</sup>** 

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Tuproq tarkibidagi mikro elementlarni o'simlik yaxshi o'zlashtira olishi uchun kerakli miqdorda turli mineral va organik o'g'itlardan foydalaniildi. Tadqiqotlarda paxta hosildorligini oshirish maqsadida o'simlikni oziqlantirishda nafaqat mineral o'g'itlar va suyuq NPK o'g'itlarni qo'llash balki bugungi kunda yangi ishlab chiqarilayotgan fiziologik faol moddalaridan foydalanshni muddatlanishi va me'yordarini o'rganish va aniqlash dozarbi masalalardan biri hisoblanadi.*

**Аннотация**

*Различные минеральные и органические удобрения используются в необходимом количестве, чтобы микроэлементы, находящиеся в почве, хорошо усваивались растением. Для повышения урожайности хлопка одним из актуальных вопросов является изучение и определение условий и норм применения не только минеральных удобрений и жидких NPK-удобрений, но и рассматривается использование вновь производимых сегодня физиологически активных веществ.*

**Abstract**

*Different mineral and organic fertilizers are used in the required amount so that the microelements in the soil can be well absorbed by the plant. In order to increase cotton productivity, one of the urgent issues is to study and determine the terms and norms of using not only mineral fertilizers and liquid NPK fertilizers, but also the use of physiologically active substances that are newly produced today is considered.*

**Kalit so'z:** O'simlik, mikroelement, hosil elementlari, mikroorganizmlar, g'o'za, fiziologik faol moddalar, shonalash, gullah.

**Ключевые слова:** Растение, микроэлементы, элементы сельскохозяйственной культуры, микроорганизмы, хлопок, физиологически активные вещества, кущение, цветение.

**Key words:** Plant, micronutrients, crop elements, microorganisms, cotton, physiologically active substances, tillering, flowering.

**KIRISH**

G'o'za o'simligi asosan ildiz orqali oziqlantiriladi. Bunda o'g'itlar asosan shudgor oldidan, ekish oldidan, ekish bilan birgalikda va amal davrida oziqlantirishda qo'llanilishi kerakligi olimlar tomonidan ko'p yillik tajribalarda o'rganish asosida isbotlangan va tafsiyalar berilgan [1, 2].

G'o'zaning maromida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi tuproq tarkibiga va ozuqa moddalarga bog'liq bo'ladi. G'o'za turli tuproqlarda, bo'z tuproq, soz tuproq, qumoq, qumli, toshloq, yer osti suvi yaqin joylashgan o'tloqi-botqoq tuproqlarda ham o'saveradi. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida g'o'za shag'al, singdirish qatlami birmuncha yuzaroq joylashgan yerlarda ham yaxshi o'saveradi, lekin bularda oziqa moddalar etarli miqdorda berilishi kerak bo'ladi.

### **3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**

Tuproq tarkibidagi mikro elementlarni o'simlik yaxshi o'zlashtira olishi uchun kerakli miqdorda turli mineral va organik o'g'itlardan foydalaniladi. Tadqiqotlarda paxta hosildorligini oshirish maqsadida o'simlikni oziqlantirishda nafaqat mineral o'g'itlar va suyuq NPK o'g'itlarni qo'llash balki bugungi kunda yangi ishlab chiqarilayotgan fiziologik faol moddalardan foydalanishni muddatlari va me'yorlarini o'rganish va aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda asosida Farg'ona viloyatining tuproq iqlim-sharoitida g'o'za ekinidan olinadigan hosildorlikni kamida 4-5 s/ga gacha oshirish maqsadida yangi fizilogik faol moddalarni o'rganish asosida aniq ilmiy izlanishlarni olib borish ham asosiy dolzarb masala ekanligini belgilaydi [2, 3].

Farg'ona viloyati tuproq-iqlim sharoiti uchun rayonlashtirilgan g'o'za navlari parvarishida qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlarga qo'shimcha ravishda fiziologik faol moddalarni qo'llash muddat va me'yortari o'rganildi.

Chigit unib chiqish vaqtida tuproqda azot ko'p bo'lsa, maysalarning yer betiga chiqishi sekinlashib, ildiz sistemasining rivojlanishi zaiflashadi. Mana shu holatda tuproqda fosforning bo'lishi azotning kuchli ta'siri (konsentratsiyasi) ni qaytaradi. Shonalash davriga qadar, ayniqsa bu davrning dastlabki paytlarida, tuproqda azotning keragidan ortiqcha bo'lishi o'simlikda hosil shoxning yuqorida chiqishiga sabab bo'ladi, bundan tashqari g'o'za rivojlanishidagi asosiy fazalarning boshanishi kechikadi [4, 5].

Shonalash va gullah fazasida tuproqda azotning keragidan ortiqcha bo'lishi o'simlikning g'ovlab ketishiga, hosilining kamayishiga va kech etilishiga olib keladi. Aksincha, bu davrda azotning kamchil bo'lishi esa, o'simlikning zaif o'sib, hosil shoxlari kam bo'lishi, binobarin, ko'saklarning kamayishiga va mayda bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Tuproqning unumdorligiga va ekinlardan muttasil yuqori hosil olishga qaratilgan barcha agrotexnika chora tadbirlari orasida yerni ishlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, yerga ishlov bermasdan turib bunday yerda ekin yetishtirib bo'lmaydi. Tuproq o'simlik ildizi uchun yetarli darajada yumshoq bo'lganda, uning suv fizik xususiyatlari va mikroorganizmlar faoliyati yaxshi bo'ladi. Yerni ishlash deganda, uni shudgor qilish, tekislash, boronalash, kultivatsiyalash, chizellash, mola bosish kabi ishlar tushuniladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Farg'ona viloyatining o'tloqi-saz, kuchli va o'rtacha sho'rangan tuproqlari sharoitida g'o'za parvarishida navlarini hosil elementlarini ko'proq saqlab qolish orqali hosil salmog'i va sifatini oshirishda zamonaviy agrotadbirlardan fiziologik faol moddalarni o'mni katta bo'lib qolmoqda. Shularni hisobga olgan holda agrotadbirlarni qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib bordik.

Dala tajribalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalar ilmiy-tadqiqot instituti Farg'ona ilmiy-tajriba stansiyasida 2024-yilda bajarilgan bo'lib, unda Tajribada Avangard (start), Avangard (azot mikro) mikro elementli suyuq o'g'itlarni andoza variantlari 10 ta variantdan iborat bo'lib, 3 yarusda, 3 qaytariqda joylashtirilib, kichik maydonchalarda S-8290 g'o'za navi ekildi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Bunda dala tajribalari uchun "SWISSAGRO" MUDKda ishlab chiqrilayotgan mikro va makroelementlar bilan boyitilgan murakkab mikro o'g'itlardan "Avangard-star" va "Avangard azot+mikro" nomli yangi bioo'g'itlardan foydalandik.

**1-jadval**

### **Tajriba tizimi (2024-y) g'o'zani S-8290 navi**

T/r	Tajriba variantlari	2-3 chinborg davrida ishlov berish me'yori, kg, l/ga	Shonalash-gullah, davrida ishlov berish me'yori, kg, l/ga	Gullah va mevalash davrida ishlov berish meyori, kg, l/ga
1	Nazorat	-	-	
2	Andoza (Universal)	1,0	1,0	1,0
3	Avangard (start)	1,0		
4	Avangard (start)	1,0	1,5	
5	Avangard (start)	1,0	1,5	2,0
6	Avangard (start)	1,5	2,5	3,0
7	Avangard (azot mikro)	1,0		

## 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

8	Avangard (azot mikro)	1,0	1,5	
9	Avangard (azot mikro)	1,0	1,5	2,0
10	Avangard (azot mikro)	1,5	2,5	3,0

Bunda dala tajribalari uchun "SWISSAGRO» MÜKda ishlab chiqrilayotgan mikro va makroelementlar bilan boyitilgan murakkab mikro o'g'itlardan "Avangard-star" va "Avangard azot+mikro" nomli yangi bioo'g'itlardan foydalandik.

**Avangard Start, RK** (Azot-100g/l, Fosfor-70g/l, Kaliy-20g/l, Kalsiy-10g/l, Temir-10g/l, Marganes-5g/l, Bor-5g/l, Rux-5g/l, Kobalt-0,1g/l, Molibden-0,5g/l, Mis-2g/l,) Ekinlarini unib chiqishini 8-10% ga oshiradi, rivojlanishini tezlashtiradi, noqulay ob havo sharoiti va zararli organizmlarga chidamliligini hamda hosildorlikni oshiradi.

**Avangard Azot+Mikro, RK** (N-300g/l, SO<sub>3</sub>-26 g/l, MgO-10g/l, B-0,5g/l, Fe-0,3g/l, Mn-4g/l, Cu-1g/l, Zn-0,3g/l, Mo-0,1g/l, Co-0,01g/l) Ekinlarini unib chiqishini 8-10% ga oshiradi, rivojlanishini tezlashtiradi, noqulay ob havo sharoiti va zararli organizmlarga chidamliligini hamda hosildorlikni oshiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, mineral o'g'itlar N-200, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> -140, K<sub>2</sub>O-100 kg/га meyorlarda tuproq ostidan berilgan holda qo'shimcha barg orqali oziqlantirishda mikroelementli o'g'itlarni qo'llash muddat va me'yollarining;

- o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga;
- g'o'zaning barg yuzasi, quruq massasi va fotosintez mahsuldarligiga;
- hosil elementlarini, shakillanishi va to'kilishiga ta'siri aniqlandi, buni quyidagi jadvallar asosida taxsil qilindi.

## 2-jadval

## Tajriba tizimida (2024-y) g'o'zani fenologik kuzatuvlar tahlili

T/r	Tajriba variantlari	Fenologik kuzatuv 1.08.2024-yil				Fenologik kuzatuv 1.09.2024-yil			
		o'simlik bo'yи	hosil shoxи	gul soni	ko'sa k soni	o'simli k bo'yи	hosil shoxi	ochil gan ko'sa k	ochil magan ko'sak
1	Nazorat	53,2	2,0	1,3	2,4	54,7	4,77	3,29	1,35
2	Andoza (Universal)	53,9	4,0	1,4	2,7	54	4,82	2,86	2,17
3	Avangard (Start) 1marta	54,7	4,7	1,7	3,0	56,8	4,92	3,27	2,4
4	Avangard (Start) 2 marta	56,3	4,8	1,8	3,4	62,37	5,98	3,56	2,97
5	Avangard (Start) 3 marta	65,5	5,6	2,1	3,8	73,1	6,9	3,77	3,87
6	Avangard (Start) 3 marta dozasi ko'proq	67,1	5,8	2,3	4,0	91,96	7,7	3,8	4,93
7	Avangard (azot+mikro) 1 marta	50,8	3,4	1,0	2,6	68	5,42	2,8	2,76
8	Avangard (azot+mikro) 2 marta	53,0	5,0	1,7	3,1	70,7	6,42	3,28	3,3
9	Avangard (azot+mikro) 3 marta	68,4	6,0	1,8	4,0	79,7	7,8	3,66	4,42
10	Avangard (azot+mikro)	68,3	6,3	2,3	5,0	89,5	8,09	4,3	4,73

## 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

3 marta dozasi ko'proq							
---------------------------	--	--	--	--	--	--	--

Ta'kidlash joizki, hosilini salmog'i va sifatini oshirishda, g'o'zaning o'suv davri davomida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi birinchi navbatda hosildorligiga va sifatiga ko'proq e'tibor qaratilgan holatda, g'o'za parvarishida ushbu yangi bioo'g'itlarni qo'llashning 3 marta qo'llash usuli (1,5:2,5:3,0 l/ga) yaxshi samara berdi, g'o'zada fenologik kuzatuvlar olib borganimizda 6 va 10-variantlarda o'simlikni bo'yи, hosil shoxi, gul soni, ko'sak soni kabi ko'rsatgichlari yuqori bo'ldi. Ya'ni Avangard (azot+mikro) 3 marta qo'llanilgan variantda o'simlikni bo'yи 68,4 sm, hosil shoxi 6,0 dona, gul soni 1,8 dona, ko'sak soni 4,0 donani tashkil etgan holda nazorat va andoza variantga nisbatan birmuncha yuqori bo'ldi. Bu esa keyinchalik hosildorlikni oshishiga ijobji ta'sir etdi.

Go'za parvarishida qo'shimcha ravishda o'suv davrlarida mikroo'g'itlarni qo'llash hisobiga o'simlikni o'sishi va rivojlanishini tezlashdi va mahsulдорligini oshirdi.

**XULOSA**

Shuning uchun bugungi kundagi paxta maydonlardidan sezilarli darajada salmoqlı va sifatli hosil yetishtirish uchun g'o'zaning hosil elementlarini to'kilish darajasini kamaytirish choralaridan biri yangi mikroo'g'itlardan foydalanish hisoblanadi.

Respublikamiz sharoitida paxta yetishtirishda fiziologik faol preparatlardan foydalanishga e'tibor berib, g'o'zaning hosil elementlarini to'kilishini kamaytirishga va hosilni oshirishga, tolani sifatini yaxshilashga va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ibragimov O.O., Davronov Q.A. G'o'za parvarishida agrotexnik omillar ta'sirida hosil tugunchalarini to'kilishini oldini olish choralar // Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. ToshDAU va PSUYEAITI maqolalar to'plami 2-qism. -Toshkent, 2015. -B. 390-393.
2. Tillabekov B.X., Qodirxo'jayeva M.F., Karimov Sh., Azimova M., Farmonov S. Suspenziyalarning g'o'za hosildorligiga ta'siri // Qishloq xo'jaligida yangi tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish. O'zPITI maqolalar to'plami. -Toshkent, 2011. -B. 164-166.
3. Tillabekov B.X., Qodirxo'jayeva M.F., Xayitboyev X., Siddiqova D. Supenziyalarni qo'llash muddatlarining paxta tolasi texnologik xususiyatlariiga ta'siri //G'o'za va g'o'za mujmuidagi ekinlarni parvarishlash agrotexnologiyalarini takomillashtirish. O'zPITI maqolalar to'plami. -Toshkent, 2013. -B. 185-188.
4. Q.Davronov, G.Abdullayeva. "O'simliklar hayotida mikroelementlarning roli" «Yangi o'zbekistonda qishloq xo'jaligini iinnovatsion rivojlanirish istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi materiallar to'plami 2024-yil 15-may, 70-75 betlar.
5. Q.Davronov, N.Teshaboyev. "Mikroelementli o'g'itlarni o'simlikni bargi orqali qo'llashning g'o'zani 1000 dona chigit vazni hamda bir ko'sakdagisi paxta vazni ning o'zgarishiga ta'siri". Science and innovation, 2023 - T.2. – №. 8. – S. 489-492.